


## II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yil yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6 266,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 106,6 %ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 92,5 %ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni qazish – 0,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 6,3 %ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 0,7 %ni tashkil etdi.

**Yanvar–mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %)



### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.


Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajmi indeksi – 62,5 % ni tashkil qildi.

### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)**

2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 798,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,5 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 21,5 mlrd.so'mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3%), o'rta-yuqori texnologiyali 633,1 mlrd. so'mni, (10,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 1 406,2 mlrd. so'mni (22,4 %), va quyi texnologiyali 3 737,9 mlrd. so'mni, (59,6 %) tashkil etdi.

**Yanvar–mart oylarida ishlab chiqarishning  
texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da**



- Yuqori texnologiyali      ■ O'rta-yuqori texnologiyali
- O'rta-quyi texnologiyali      ■ Quyi texnologiyali

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan  
natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish  
(2022- yil yanvar-mart oylari uchun)**

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	<i>2021-yil yanvar-mart holatiga nisbatan, % da</i>
Avtomobil benzini	ming tonna	49,5	93,8
Dizel yoqilg'isi	ming tonna	70,4	98,6
Uzum vinosi	ming litr	238,3	83,9
Neft bitumi	ming tonna	1,3	12,6
Superfosfat	ming tonna P2O5	9,9	182,1
Paxta chigiti	tonna	32 626,5	161,9
Shisha idishlar	ming dona	6 893,0	32,2
Gips	tonna	17 100,0	100,3

### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 395,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,3 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 134,9 % ni tashkil etdi.

### **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,3 % ni tashkil etdi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2022- yil yanvar-mart oylari uchun)**


	<i>mlrd.so'm</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	6 266,5	100,0
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	28,4	0,5
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatining boshqa turlari	9,2	0,1
Qayta ishlash sanoati	5 798,8	92,5
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	774,2	12,4
to'qimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish	2 714,2	43,3
yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari	136,1	2,2
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,5	0,04
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	582,8	9,3
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	515,5	8,2
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	11,2	0,2
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	609,2	9,7
metallurgiya sanoati	23,0	0,4
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	120,2	1,9
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	10,3	0,2
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	25,9	0,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	29,5	0,5

	<i>mlrd.so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	102,2	1,6
Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	29,8	0,5
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	54,2	0,9
Mebel ishlab chiqarish	56,8	0,9
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	1,2	0,02
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	395,5	6,3
Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	43,8	0,7
Iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish	1 435,9	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	666,7	46,4
nooziq-ovqat tovarlari	769,2	53,6


### **Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste‘mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1 435,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 92,5%ni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 22,9%ni tashkil etdi.


**Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda)



**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da**  
(yanvar-mart oylari uchun)




**Hududlarning viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**  
(2022- yil yanvar-mart oylari uchun)




**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mos ravishda oshishiga olib keldi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 35,0 % nitashkil etmoqda.



## Hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi.


(2022- yil yanvar-mart oylari, foiz xisobida)




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Farg'ona shahrida (4 824,8 ming so'm), Quvasoy shahrida (2 941,7 ming so'm), Qo'qon shahrida (4 390,1 ming so'm), Toshloq tumani (4 601,8 ming so'mni) da viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab  
chiqarish hajmi, ming so'mda  
(2022- yil yanvar-mart oylari uchun)**

**Sanoat mahsulotlari**



**Iste'mol tovarlari**




**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 10056 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1411 tasi Qo'qon shahri, 1041 tasi Marg'ilon shahri, 1155 tasi Farg'ona shahri, 290 tasi Quvasoy shahri, 672 tasi Uchko'prik tumani, 597 tasi O'zbekiston tumani, 557 tasi Dang'ara tumani, 556 tasi Buvayda tumani, 442 tasi Toshloq tumani, 474 tasi Quva tumani, 422 tasi Bog'dod tumani, 437 tasi Oltiariq tumani, 288 tasi Qo'shtepa tumani, 463 tasi Rishton tumani, 304 tasi Farg'ona tumani, 234 tasi Yozyovon tumani, 218 tasi Furqat tumani, 272 tasi Beshariq tumani, 223 tasi So'x tumaniga to'g'ri keladi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 417 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 58 tasi Farg'ona shahri, 26 tasi Qo'qon shahri, 13 tasi Uchko'prik tumani, 25 tasi Dang'ara tumani, 31 tasi Marg'ilon shahri, 33 tasi Rishton tumani, 20 tasi Oltiariq tumani, 20 tasi O'zbekiston tumani, 9 tasi Quvasoy shahri, 21 tasi Buvayda tumani, 19 tasi Farg'ona tumani, 16 tasi Bog'dod tumani, 22 tasi Toshloq tumani, 22 tasi Qo'shtepa tumani, 15 tasi Yozyovon tumani, 13 tasi Quva tumani, 15 tasi Furqat tumani, 17 tasi Beshariq tumani, 22 tasi So'x tumaniga to'g'ri keladi.

## Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yil boshida yangi tashkil etilgan korxonalar

(2022- yil yanvar-mart oylari uchun, soni birlikda)



## Hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining mulkchilik shakllari, foizda

(2022- yil yanvar-mart oylari uchun)

